

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM SIFATINI OSHIRISH VA ULARNING
MAMLAKATDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN KENG QAMROVLI ISLOHOTLARDA
FAOL ISHTIROKINI TA‘MINLASH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA**

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta‘lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta‘lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta‘lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta‘minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

birinchidan, oliy ta‘lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayoni, ta‘lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;

ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda;

uchinchidan, oliy ta‘lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda;

to‘rtinchidan, oliy ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o‘rnatilmaganligi ushbu sohada ko‘plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda;

beshinchidan, oliy ta‘lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o‘zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqsiz bo‘lib qolmoqda;

oltinchidan, respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta‘lim muassasalarining faol ishtiroki yo‘lga qo‘yilmagan;

yettinchidan, oliy ta‘lim muassasalari innovatsion va texnologik g‘oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarida mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o‘rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha taklif kiritish borasida professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko‘rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan.

Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini tubdan takomillashtirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab:

alohida ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qish muddati kamida uch yil bo‘lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo‘lgan magistraturani joriy etish, bunda magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo‘nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etish;

oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni suhbat asosida test sinovlarisiz o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning viza talabnomalariga asosan o‘qishga kirish istagini bildirgan xorijiy fuqarolarning kirish vizalarini o‘rnatilgan tartibda konsullik va boshqa to‘lovlarni undirmagan holda rasmiylashtirsin.

3. 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab tayanch (yetakchi) oliy ta‘lim muassasalari tomonidan tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarini kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda ishlab chiqish hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlash tartibi joriy etilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) ikki oy muddatda Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin, bunda asosiy e‘tiborni: baholash tizimi va mezonlarini uzluksiz ta‘lim tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirishga; ta‘lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlari inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etishga;

semestr yakuni bo‘yicha akademik qarzdor talabani qayta topshirishi mumkin bo‘lgan fanlar sonini belgilashga va ularni topshirish muddatini o‘zgartirishga qaratsin;

b) 2018-yil 1-dekabr gacha bo‘lgan muddatda oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

v) 2019-yil 1-mart gacha bo‘lgan muddatda 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘lim muassasalarida “talabani o‘zlashtirish darajasi — professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezonini” tamoyilini joriy qilishning aniq mexanizmlarini belgilash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘rsin. Bunda ushbu tamoyil talabalariga javob bermaydigan professor-o‘qituvchilar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo‘lgan choralar ko‘rish belgilansin;

g) 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining vaqtini o‘quv jarayoniga xos bo‘lmagan ishlarga sarflashning oldini olish hamda ularni talabalar bilan ko‘proq ishlashga yo‘naltirish, shu jumladan “ustoz — shogird” tizimini joriy etish maqsadida o‘quv yuklamalarini hisobga olgan holda professor-o‘qituvchilar “vaqt me‘yorlari”ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. Oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etish taqiqlansin.

Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar mazkur talabni buzganligi uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida qat‘iy ogohlantirilsin.

6. Barcha oliy ta‘lim muassasalarida samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o‘qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashlari tashkil etilsin.

Quyidagilar jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

ta‘lim sifati, professor-o‘qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o‘rnatish;

oliy ta‘lim muassasalariga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo‘yicha tavsiyalar berish;

talabalarining murojaatlarini ko‘rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to‘liq o‘rganish maqsadida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish;

oliy ta‘lim muassasasidagi ta‘lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasasidagi yetakchisi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

7. Belgilansinki, 2018-yil 1-sentabrdan boshlab:

oliy ta'lim muassasalariga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish tegishli kafedraning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a'zolari ishtirokida sinov darsi o'tkazish natijalari bo'yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko'ra amalga oshiriladi;

O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi hamda qo'shma ta'lim dasturlari asosida talabalarni o'qitishni tashkil etish va ikki tomonlama tan olinadigan diplom berish amaliyoti joriy etiladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda:

oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi test savollarini tayyorlash uslublarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqsin hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

ilg'or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish;

davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta'lim muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazilishini ta'minlash;

hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarining keng muhokamasida oliy ta'lim muassasalarining faol ishtirokini ta'minlash;

innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarining innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ko'rish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar tashkilotlari rahbarlari, yetakchi mutaxassislari, faol tadbirkorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra suhbatlarini doimiy ravishda o'tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish;

oliy ta'lim muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas'uliyatini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar belgilash, har bir rektor va prorektor uchun ushbu yo'nalishda alohida "yo'l xaritalari" ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlash, ularning ijrosini nazorat qilish.

10. Belgilab qo'yilsinki:

Oldingi tahrirga qarang.

oliy ta'lim muassasalarining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmalariga yuklanadi;

(10-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son)

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlari — tegishli oliy ta‘lim muassasalari rektorlari va prorektorlarining, innovatsion rivojlanish vaziri — barcha oliy ta‘lim muassasalari ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorlarining faoliyati natijalarini ularning “yo‘l xaritalari”da belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan har oyda kamida bir marta tanqidiy muhokama qilib boradi;

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar rahbarlarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda tegishli oliy ta‘lim muassasalarining faol ishtirokini ta‘minlash yuzasidan hisobotlari har yili Vazirlar Mahkamasining majlislarida muhokama etiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muhokama natijalariga ko‘ra oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining egallab turgan lavozimiga loyiqqligi yoki nолоyiqqligi masalasini ko‘rib chiqadi;

oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining faoliyati samaradorligiga baho berishda o‘quv jarayoniga yuqori malakali xorijiy olimlar, o‘qituvchi va mutaxassislarining keng jalb qilinganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining filiallarini ochishda ularning tashabbuskorligi inobatga olinadi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda oliy ta‘lim muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo‘naltirishga va ularda innovatsion fikrlashni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин, unda quyidagilar nazarda tutilsin:

yangi g‘oya va tashabbuslarni shakllantirish maqsadida har bir oliy ta‘lim muassasasida “Yosh ekspertlar guruhi”ni tashkil etish;

o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e‘tiborni talabalarning mustaqil ta‘lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish;

har bir oliy ta‘lim muassasasida 1-kurs davomida saralab olingan eng iqtidorli talabalar uchun alohida guruhlar tashkil etish (mazkur guruhlardagi talabalar soni oliy ta‘lim muassasasi tomonidan belgilanadi), 2-kursdan ularni o‘qitishni alohida o‘quv reja va dasturlar asosida amalga oshirish, ushbu toifadagi talabalarni magistraturaga maqsadli qabul qilish va bu orqali oliy ta‘lim muassasalari kafedralari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish.

12. Yosh olim va talabalarga hamda tashabbuskor fuqarolarga mamlakatda innovatsion g‘oya va texnologiyalarni rivojlantirishga qo‘shgan munosib hissasi uchun topshiriladigan “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni ta‘sis etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida Hukumat qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

13. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmuni va mohiyatini televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida tushuntirish bo‘yicha chiqishlarni tashkil etish yuzasidan har bir oliy ta‘lim muassasasining yillik reja-grafigini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Moliya vazirligining:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha 2 ta shtat birligini ajratgan holda Axborot xizmatini tashkil etish;

oliy ta'lim muassasalarini tuzilmalarida ularning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha 1 tadan shtat birligini ajratgan holda matbuot kotibi lavozimini joriy etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda:

a) oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar, davriy jurnallar bilan ta'minlash, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam ravishda yangilab borishni; ilg'or xorijiy o'quv hamda ilmiy adabiyotlar va jurnallarni xarid qilish ishlariga keng imkoniyatlar yaratish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish va o'quv jarayoniga joriy etishni nazarda tutadigan Hukumat qarorini qabul qilsin;

b) Oliy ta'lim muassasalarini talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlasin.

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda:

a) bir oy muddatda quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

oliy ta'lim muassasalariga xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanishga sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilarning ilmiy natijalarini xalqaro miqyosda keng nashr etish, respublika yetakchi ilmiy jurnallarining bosqichma-bosqich yuqori impakt-faktorga ega bo'lishini ta'minlash;

oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, mavjud axborot tizimlarini integratsiyalash, tahliliy ma'lumotlar tayyorlashning samarali tizimlarini joriy etish;

b) abituriyentlar hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish tizimini bosqichma-bosqich yaratish bo'yicha 2019-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatda chora-tadbirlar ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

19. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi R.S. Qosimov, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O.B. Murodov hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 5-iyun,
PQ-3775-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qaroriga
ILOVA

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha

“YO'L XARITASI”

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish				

1.	Amaldagi qonun hujjatlarini inventarizatsiya qilish va ularga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	<p>1. Amaldagi qonun hujjatlarini inventarizatsiya qilish bo'yicha ishchi guruh tuzish.</p> <p>2. Amaldagi qonun hujjatlariga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash.</p>	2018-yil noyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Davlat test markazi, Oliy attestatsiya komissiyasi
2.	Oliy ta'lim turlarini takomillashtirish choralari ko'rish.	<p>1. Alohida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qish muddati kamida uch yil bo'lgan bakalavriat hamda kamida bir yil bo'lgan magistraturani joriy etishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2018-yil sentyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
3.	Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	<p>1. Oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish kvotalaridan tashqari xorijiy fuqarolarni suhbat asosida test sinovlarisiz o'qishga qabul qilish mexanizmini joriy etish.</p> <p>2. Tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2018-yil iyul	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, TIV
4.	Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish.	<p>Loyihada quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish:</p> <p>1. Baholash tizimi va mezonlarini uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirishga;</p> <p>2. Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli</p>	2018-yil avgust	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar

		<p>(avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etishga;</p> <p>3. Semestr yakuni bo'yicha akademik qarzdor talabning qayta topshirishi mumkin bo'lgan fanlar sonini (uchtagacha) belgilashga va ularni topshirish muddatini o'zgartirishga.</p>		
5.	<p>O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.</p>	<p>1. Bitiruvchilarning iqtidori va xohish-istaklarini inobatga olgan holda yakuniy davlat attestatsiyasini mutaxassislik fanlaridan (fanlararo) imtihon yoki bitiruv malakaviy ishini himoya qilish shakllarida o'tkazishni tashkil etish.</p> <p>2. Ayrim bitiruv malakaviy ishlarini ishlab chiqarish joylarida himoya qilish tizimini kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish.</p> <p>3. Yakuniy davlat attestatsiyasi k^omissiyalarining tarkibiga mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining pedagog kadrlari bilan birga kadrlar buyurtmachilarini ham kiritish amaliyotini yaratish.</p>	2018-yil noyabr	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar</p>
6.	<p>Magistratura to'g'risidagi nizomni yangi tahrirda ishlab chiqish.</p>	<p>1. Loyihada asosiy e'tiborni magistraturada mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarish (amaliy) (kamida bir yil) va ilmiy-pedagogik (kamida ikki yil) yo'nalishlarga ixtisoslashgan dasturlar asosida tashkil etishga qaratish.</p> <p>2. Tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish</p>	2018-yil avgust	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar</p>

		va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		
7.	O'quv yuklamalarini hisobga olgan holda professor-o'qituvchilar "vaqt me'yorlari"ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash.	<p>1. Professor-o'qituvchilarning vaqtini o'quv jarayoniga xos bo'lmagan ishlarga sarflashning oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlarni yaratish.</p> <p>2. Professor-o'qituvchilarning vaqtini talabalar bilan ko'proq ishlashga yo'naltirish maqsadida "ustoz — shogird" tizimini joriy etish.</p>	2018-yil avgust	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
II. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy tadbirlar				
8.	Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlaridagi test savollarini tayyorlash uslublarini takomillashtirish.	<p>1. Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini ishlab chiqish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish.</p> <p>2. Abituriyentni mantiqiy fikrlashga undaydigan test savollarini kiritish va uning ulushini ko'paytirish.</p> <p>3. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik sifatini oshirish maqsadida abituriyentlarning foydalanishi uchun muntazam ravishda kirish imtihonlari savollari to'plamini (axborotnomani) chop etish va hududlarga yetkazish, shu jumladan uning elektron shaklini DTMning rasmiy veb-saytiga doimiy ravishda joylashtirib borish.</p>	2018-yil dekabr Doimiy ravishda	Davlat test markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi
9.	Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini o'tkazish jarayoni, shu jumladan uning ustidan nazoratni kuchaytirishning samarali usullarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	<p>1. Xorijiy oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini o'tkazish jarayonini o'rganish.</p> <p>2. Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari jarayonidagi belgilangan tartiblarni buzish amaliyotini tanqidiy tahlil qilish.</p>	2018-yil sentyabr	Davlat test markazi, oliy ta'lim muassasalari

		3. O'rganish natijalariga ko'ra takliflar ishlab chiqish.		
10.	Oliy ta'lim muassasalari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish.	<p>1. Oliy ta'lim muassasalari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni qabul qilish.</p> <p>2. Oliy ta'lim muassasalari huzurida jamoatchilik kengashlari tarkibini aniqlash va tasdiqlash. Bunda ota-onalar, Yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi faol a'zolari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar, hududdagi fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari vakillarini jalb etishga e'tibor qaratish.</p>	2018-yil sentyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari
11.	Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va raqobatbardoshligini ta'minlovchi xorijiy ilg'or tizimlarni boshqaruv va ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	<p>1. "Benchmarking" (oliy ta'lim muassasalari faoliyatining komponentlari bo'yicha qiyosiy tahlil etish orqali muammolarga yechim topish), "Total quality management" (ta'lim sifatini oshirishning yalpi boshqaruvi), "blended learning" (yagona elektron tizim orqali ta'limni amalga oshirishning talaba-pedagog muloqoti), "Tuning" (umumkasbiy va mutaxassislik kompetensiyalariga asoslangan ta'lim berish) kabi ilg'or xorijiy ta'lim muassasalarida joriy etilgan tizimlarni o'rganish.</p> <p>2. O'rganish natijalariga ko'ra tahliliy ma'lumot tayyorlash.</p>	2019-yil aprel	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
12.	Ta'lim klassifikatsiyasining xalqaro standartini (MSKO–2011) milliy ta'lim tizimiga joriy etish masalasini o'rganib chiqish va takliflar tayyorlash.	1. Ta'lim klassifikatsiyasining xalqaro standartini (MSKO–2011) milliy ta'lim tizimiga joriy etishni o'rganish bo'yicha ishchi guruh tuzish.	2019-yil fevral	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, manfaatdor

		2. Ta'lim klassifikatsiyasining xalqaro standarti (MSKO–2011) joriy etilgan xorijiy davlatlarning ta'lim tizimi sifatini o'rganish va tahliliy ma'lumot tayyorlash.		vazirlik va idoralar
13.	Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash tartibini takomillashtirish, shu jumladan xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari reytingida yuqori ko'rsatkichga ega muassasalarning ro'yxatini kengaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	1. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash tartibini takomillashtirish bo'yicha ishchi guruh tuzish. 2. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash tartibini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2018-yil sentyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
14.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tuzilmasida hamda oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilishi belgilangan axborot xizmatining (matbuot kotibining) faoliyat nizomlarini tasdiqlash.	1. Oliy ta'lim muassasalarida matbuot kotibining to'liq faoliyat yuritishini ta'minlash. 2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tuzilmasida hamda oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilishi belgilangan axborot xizmatining (matbuot kotibining) nizomlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2018-yil avgust	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy ta'lim muassasalari
15.	Oliy ta'lim muassasalarida stipendiyalarni tayinlashning amaldagi mexanizmlarini o'rganish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash.	1. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stipendiyalarni tayinlash mexanizmlarini tahlil qilish. 2. Milliy amaliyot va xorijiy tajribani o'rganish natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumot tayyorlash.	2018-yil dekabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
16.	Talabalar kontrakt to'lovlarining ish beruvchi korxonalar tomonidan amalga oshirilishining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish.	1. Talabalar kontrakt to'lovlarining ish beruvchi korxonalar tomonidan amalga oshirilishining amaldagi tartibini o'rganish. 2. Ayrim toifadagi (kam ta'minlangan, iqtidorli va h.) talabalar kontrakt to'lovlarining ish beruvchi korxonalar tomonidan	2019-yil fevral	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

		amalg oshirilishini amaliyotga keng joriy qilish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish.		
III. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish				
17.	Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish.	1. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda har bir oliy ta'lim muassasasining ishtirokini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Islohotlarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarida tashabbuskorlikni kuchaytirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish.	2018-yil iyun	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari
18.	Oliy ta'lim muassasalari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan takliflarning kiritib borilishini yo'lga qo'yish.	1. Har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar tashkilotlari bilan birgalikda tegishli soha va tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha tashabbuskor guruhlarni shakllantirish. 2. Tashabbuskor guruhlarning aniq vazifalarini belgilash, ish rejalarini tasdiqlash hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun tegishli sharoitlar yaratish.	2018-yil iyun 2018-yil avgust	Oliy ta'lim muassasalari
19.	Oliy ta'lim muassasalarining hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarining keng muhokamasida faol ishtirok etishini ta'minlash.	1. Barcha soha va tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar huzurida tashkil etilayotgan ishchi guruhlar hamda ekspert-tahliliy guruhlar tarkibiga oliy ta'lim muassasalarining professor-	Doimiy ravishda	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlisi palatalari (kelishuv bo'yicha), Vazirlar Mahkamasi, manfaatdor vazirlik va idoralar, oliy

		<p>o'qituvchilari va yosh olimlarini kiritish choralarini ko'rish.</p> <p>2. Tegishli soha va tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalari bilan professor-o'qituvchilar va talabalarni muntazam ravishda tanishtirib borish mexanizmlarini takomillashtirish.</p> <p>3. Tegishli soha va tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalari bo'yicha professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida muhokamalar tashkil etish hamda ishlab chiqilgan takliflarni tegishliligi bo'yicha taqdim etib borish.</p>		ta'lim muassasalari
20.	Oliy ta'lim muassasalari tomonidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish hamda tahlil qilish.	<p>1. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan davlat va jamiyat hayotining tegishli sohalarida mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish mexanizmini ishlab chiqish.</p> <p>2. Mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o'rganish asosida tegishli tahliliy materiallar tayyorlab borish.</p>	2018-yil iyul Doimiy ravishda	Oliy ta'lim muassasalari
IV. Davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar va sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini oliy ta'lim muassasalari tomonidan televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e'tiboriga yetkazish				
21.	Televideniye, radio, gazeta va jurnallar, Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar hamda faol veb-saytlar orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmuni va mohiyatini	<p>1. Har bir soha kesimida normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va mohiyatini yoritib bera olish salohiyatiga ega bo'lgan olimlar va professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli</p>	2018-yil iyun 2018-yil iyun Reja-grafik asosida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar,

	tushuntirish yuzasidan chiqishlar tashkil etish.	islohotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni tashkil etish bo'yicha yillik reja-grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Yillik reja-grafik asosida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmuni va mohiyatini keng yoritish bo'yicha ko'rsatuvlar, eshittirishlar uyushtirish va maqolalar chop etish.		MTRK, MAA, oliy ta'lim muassasalari
22.	“O'zbekiston 24” telekanalida oliy ta'lim muassasalari vakillari uchun “Professor-o'qituvchilar va talabalar fikri” nomli ko'rsatuvni tashkil etish va unda davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar va sohalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini yoritib borish.	1. “O'zbekiston 24” telekanalida oliy ta'lim muassasalari vakillari uchun “Professor-o'qituvchilar va talabalar fikri” nomli ko'rsatuvni tashkil etish bo'yicha tashkiliy choralar ko'rish. 2. “Professor-o'qituvchilar va talabalar fikri” nomli ko'rsatuvda oliy ta'lim muassasalari vakillarining chiqishlarini tashkil etish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. “Professor-o'qituvchilar va talabalar fikri” nomli ko'rsatuvda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, talabalar, ekspertlar hamda tegishli soha mutaxassislari ishtirokini ta'minlash.	2018-yil avgust 2018-yil avgust Doimiy ravishda	MTRK, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari
23.	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazida “Press-klub” tashkil etish va unda islohotlar mazmunini yoritishga doir ko'rsatuv va ijtimoiy roliklar tayyorlab,	1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazida “Press-klub” uchun joy ajratish va uni zarur jihozlar bilan ta'minlash.	2018-yil sentyabr 2018-yil sentyabr Doimiy ravishda	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, MTRK, Moliya vazirligi, oliy ta'lim muassasalari

	<p>televideniye va Internet orqali jamoatchilik e'tiboriga havola qilib borish.</p>	<p>2. Tashkil etilgan "Press-klub"ning media-rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>3. "Press-klub" tomonidan tayyorlangan media mahsulotlarni Internet orqali doimiy, televideniye orqali reja asosida berib borish.</p>		
24.	<p>"Ma'rifat", "Uchitel Uzbekistana", "Yoshlar ovozi", "Molodej Uzbekistana" va boshqa gazetalarda hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-saytida "Islohotlar oliy ta'lim muassasalari nigohida" ruknini ochish va unda oliy ta'lim muassasalari vakillarining islohotlarga munosabatini berib borish.</p>	<p>1. "Ma'rifat", "Uchitel Uzbekistana", "Yoshlar ovozi", "Molodej Uzbekistana" va boshqa gazetalarda hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-saytida "Islohotlar oliy ta'lim muassasalari nigohida" ruknini ochish.</p> <p>2. "Islohotlar oliy ta'lim muassasalari nigohida" rukniga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish.</p> <p>3. "Islohotlar oliy ta'lim muassasalari nigohida" rukniga doimiy ravishda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning maqolalari berib borilishini ta'minlash.</p>	<p>2018-yil iyul 2018-yil iyul Doimiy ravishda</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Matbuot va axborot agentligi, MAA, oliy ta'lim muassasalari</p>
25.	<p>Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va mohiyatini tushuntirish bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining vakillari ishtirokida press-konferensiyalar o'tkazib borish.</p>	<p>1. Press-konferensiyalarni o'tkazish reja-grafigini ishlab chiqish.</p> <p>2. Reja-grafik asosida press-konferensiyalarni o'tkazish hamda ularda ommaviy axborot vositalari vakillarining keng ishtirokini ta'minlash.</p> <p>3. Press-konferensiyalarga tegishliligi bo'yicha soha mutaxassislari, olimlar va professor-o'qituvchilarni jalb etish.</p>	<p>2018-yil iyul Reja-grafik asosida</p>	<p>Milliy matbuot markazi, MAA, MTRK, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy ta'lim muassasalari</p>
26.	<p>Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va mohiyatini aholi, ayniqsa yoshlarga yetkazishga qaratilgan ko'rsatuvlar tashkil etish.</p>	<p>1. Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va mohiyatini aholi, ayniqsa yoshlarga yetkazishga qaratilgan ko'rsatuvlar media-rejasini ishlab chiqish.</p>	<p>2018-yil iyul Media-reja asosida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, MTRK</p>

		2. Media-reja asosida ko'rsatuvlarni tashkil etib borish.		
V. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarining ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarini amaliyotga joriy etish tizimini samarali tashkil etish				
27.	Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish va ularda innovatsion fikrlashni shakllantirish.	<p>Chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqish, unda quyidagilarni nazarda tutish:</p> <p>1. Yangi g'oya va tashabbuslarni shakllantirish maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida "Yosh ekspertlar guruhi"ni tashkil etish.</p> <p>2. O'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, talabalarining bilimini baholash tizimini qayta ko'rib chiqish, asosiy e'tiborni ularning dars mashg'ulotlarida yangilik taklif qilish qobiliyatiga qaratish.</p> <p>3. Har bir oliy ta'lim muassasasida 1-kurs davomida saralab olingan eng iqtidorli talabalar uchun alohida guruhlar tashkil etish (mazkur guruhlardagi talabalar soni oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi), 2-kursdan ularni o'qitishni alohida o'quv reja va dasturlar asosida amalga oshirish, ushbu toifadagi talabalarni magistraturaga maqsadli qabul qilish va bu orqali oliy ta'lim muassasalari kafedralari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish.</p>	2018-yil avgust	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
28.	Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va	1. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar	Doimiy ravishda	Oliy ta'lim muassasalari

	talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari va innovatsion ishlanmalarini amaliyotga joriy etishga yo'naltirish.	va talabalarning ilmiy izlanishlarini iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarning ilmiy-texnik muammolari asosida tashkil etish. 2. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning innovatsion ishlanmalarini amaliyotga joriy etish choralarini ko'rish.		
29.	Innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan tizimli ishlarni tashkil etish.	1. Innovatsion va texnologik g'oyalar yaratilishini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. 2. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan oliy ta'lim muassasalarining chora-tadbirlarini rejasini ishlab chiqish.	2018-yil iyul	Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari
30.	Yoshlarning innovatsion g'oya va tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati natijalarini rag'batlantirish choralarini ko'rish.	1. Yosh olimlar va talabalarga hamda tashabbuskor fuqarolarga mamlakatda innovatsion g'oya va texnologiyalarni rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun topshiriladigan "Innovatsion g'oyalar yetakchisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish. 2. Yosh olimlar va talabalar o'rtasida har yili innovatsion g'oya va tashabbuslar tanlovini o'tkazib borish va g'oliblarni taqdirlashni tashkil etish.	2018-yil avgust Har yili may oyida	Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar
31.	Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarning ilmiy-amaliy muammolariga bag'ishlangan seminar, uchrashuv va davra suhbatlari uyushtirish, oliy ta'lim muassasalari ilmiy	1. Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha tashkilotlari rahbarlari, yetakchi mutaxassislari, faol tadbirkorlar bilan dolzarb ilmiy masalalarda seminar, uchrashuv va davra	2018-yil sentyabr	Oliy ta'lim muassasalari

	salohiyatini dolzarb muammolarga yo'naltirish.	suhbatlarini o'tkazish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Oliy ta'lim muassasalarida doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlarini iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarning ilmiy-amaliy muammolari mavzularida bajarilishini yo'lga qo'yish.		
VI. Oliy ta'lim muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas'uliyatini oshirish				
32.	Oliy ta'lim muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas'uliyatini oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash.	1. Oliy ta'lim muassasasining har bir rektori va prorektori uchun ushbu yo'nalishda alohida "Yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Tasdiqlangan "Yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalarning ijrosini nazorat qilish.	2018-yil iyun Doimiy ravishda	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari
33.	Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni isloh qilish jarayonida amalga oshirgan ishlari natijadorligi hamda ular tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion g'oya va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi asosida ushbu muassasalar rahbariyati faoliyatini baholashni yo'lga qo'yish.	1. Oliy ta'lim muassasalari rahbariyati faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni isloh qilish jarayonida amalga oshirgan ishlari natijadorligini baholab borish.	2018-yil avgust Doimiy ravishda	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar, Innovatsion rivojlanish vazirligi
34.	Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarida innovatsion kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish.	Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining malakasini oshirish kurslari o'quv rejalariga innovatsion kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mavzularni kiritish.	2018-yil sentyabr	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

(ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-sonli Farmoni tahririda)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018-y., 07/18/3775/1313-son; 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son)